IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON . VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

O’ZBEK TILIDA MAZA - TA’M IFODALOVCHI BIRLIKLARNING TAHLILI

Muallif	**Toshmatova Muxlisa Murodjon qizi**
O’qish yoki ish joyi	**Farg‘ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti Ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi**
Qabul qilindi	**29.09.2023**
Nashr qilindi	**01.10.2023**

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikning bir qator olimlari tomonidan o’rganilayotgan birmuncha yangi bo‘lgan, bir qancha dolzarb ayni paytda yechimini kutayotgan muammolari mavjud bo‘lgan maza – ta’m ifodalovchi birliklarning tadqiqot obyekti bo‘lgan sifat va ot so’z turkumi haqida so‘z boradi. Muallif maza – ta’m ifodalovchi birliklarning kelib chiqishi, yasalishi, shuningdek ko’chma manoda ishlatilganda qanday imkoniyatlarga ega bo’lishini tadqiq etishga harakat qilgan.

Kalit so‘zlar

til sathlari, sifat, konversiya, tub va yasama sifat, konnotativ ma’no, dioxron, sinxron, ko’chma ma’no, shirin, achchiq.

Har bir til ma’lum bir sistemadan tashkil topgan bo’lib, ular tilni tashkil etuvchi birliklari deb nomlanadi. Til birliklarini beshta asosiy sathi mavjud bo’lib, ular eng kichik sath fonema, morfema, leksema, gap va eng kotta birlik matindan iboratdir. Maza – ta’mni bildiruchi birliklarni esa asosan sifat so’z turkumi doirasida uchratamiz. Buning asosiy sababi esa maza – ta’m ifodalovchi so’zlarning qanday? qanaqa? so’roqlariga javob bo’lganidadir. Ularga quydagilarni misol qilib ko’rsatishimiz mumkin shirin, achchiq, nordon, chuchuk, chuchmal, sho`r, taxir, kakra, laziz, xushta’m, talx, talxa va hokazolar misol bo`ladi. Maza-ta’mni ifodalashda ot turkumidagi so`zlardan ham foydalaniladi, misol uchun shakar, asal, novvot, namakob, zahar kabilar.

Maza-ta’m bildiruvchi sifatlar leksik xususiyati bilan birga, morfologik tabiati, sintaktik vazifalari va konversiya holati bilan ham tilshunosligimizda o`z o`rniga ega. Maza-ta’m bildiruvchi sifatlar tuzilishi jihatdan sodda, juft, takror va qo`shma sifatlarga bo`linadi. Sodda sifatlar tub va yasama sifatlarga bo`linadi.

Yasama sifatlarga achimsiq, tuzsiz, mazali, bemaza, bamaza, xushxo`r, xushta’m va hokazolarmansub.

Maza-ta’m bildiruvchi juft sifatlar tarkibiga shirin-shakar, zahar-zaqum, achchiq-chuchuk, asal-qand kabilar misol bo`ladi.

Maza-ta’m bildiruvchi takror sifatlarga shirin-shirin, achchiq-achchiq kabilar mansub.

Maza-ta’m sifatlari asosida shakllangan qo`shma so`zlar (sifat+ot); sho`rpeshona, shirinsuxan, sho`rtumshuq (holat va xususiyat sifatlari), sassiq o`t (ot), sassiq popushak(ot)kabi so`zlar nutqimizda anchaginani tashkil etadi.

Maza-ta’m bildiruvchi sifatlarning sintaktik vazifasi:

1. Aniqlovchi bo`lib keladi: Shirin mevalarga o`rgangan og`izlariga bu yerning nordon mevalari yoqmadi. (Oybek)

2. Kesim bo`lib keladi: Siz pishirgan taom shu darajada shirin, lazzatli bo`ladi.

3.Ba’zida maza-ta’m sifatlari ko`chma ma’noda kelganda hol vazifasida kelishi ham uchrab turadi: U achchiq gapirdi.(Gazetadan)

Maza-ta’mni ifoda etuvchi eng faol so`zlardan biri shirin va achchiq sifatlaridir. Bu sifatlar o`z ma’nosidan tashqari ko`chma ma’noda ham faol qo`llanadi. Masalan: shirin turmush, achchiq haqiqat, shirin bola, shirin so`z, shirin tabassum va b. Achchiq so`zining shirin so`ziga nisbatan ma’no doirasining kengligi uning turkiy (o`zbek) so`z ekanligi bilan bog`liq. Achchiq – bu so`z qadimgi turkiy tildagi achi fe’lidan yasalgan. Achchiq so`zi diaxronik yasama, sinxronik jihatdan esa tub so`zdir. Yoqimli so`zi aslida holat sifati bo`lib, ba’zan kontekstda shirin, mazali sifatlari bilan ma’nodosh bo`lib keladi. Yuqoridagilardan ko`rinadiki, maza-ta’m sifatlarining ham konnotativ ma’nolari keng bo`lib, bular orasidan shirin va achchiq so`zlari ma’no ifodasining kengligi bilan ajralib turadi. Taxir, chuchuk, nordon kabilar shirin va achchiq sifatlari oralig`idagi leksemalardir.

Maza-ta’m bildiruvchi sifatlarga shirin, achchiq, nordon, taxir, sho`r va boshqa sifatlar kiradi. Bu sifatlar o`z leksik ma’nosidan tashqari ko`chma ma’noda ham ifodalanadi. Masalan: shirin bola, shirin turmush, shirin orzu, achchiq haqiqat, sho`r peshona kabi. Misollarni kuzatamiz: Voy-voy, bu shirin bolani, naq bug`ursoqni o`zi-ku. (G`.G`ulom). Achchiq so`zlaringni etdim-ku hazm. (Mirtemir) Mazkur misollardagi ko`chma ma’no ifodasi uchun ishlatilgan shirin bola, achchiq so`z kabilar obrazli ifoda uchun qo`llangan.

Shirin va achchiq sifati diqqatni predmetning muayyan belgisiga tortish, belgini ta’kidlash, kuchaytirishning stilistik usuli sifatida nutqda xilma-xil konnotativ ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Lekin bu so`zlar gapdan nutqning boshqa elementlaridan ajralgan holda uslubiy bo`yoqqa ega bo`lmaydi. Ko`chadan Qobiljon odatdagi shirin mulohazalari bilan kirib keldi. (S.Ahmad) Bu misolda shirin so`zi ko`chma nutqiy ma’no asosida konnotatsiyani yuzaga keltirgan, bunda shirin so`zi “kishi g`ururlanadigan, lazzatlanadigan muomala-munosabat belgisi” ma’no muqobilini bildiradi. Maza-ta’m sifatlari takirbilagi shirin va achchiq so`zlari nisbatan keng qo`llaniladi. Shu bilan birga, ma’no doirasining kengligi bilan xarakterlanadi. “O`zbek tilining izohli lug`ati”da mazkur so`zlarning quyidagi ma’nolari izohlangan:

1. Shirasi o`tkir, shirali. Shirin qovun.

2.Ta’mi yoqimli, mazali, lazzatli. Shirin sho`rva.

3.Ko`chma ma’noda: kishi huzur qiladigan, orom oladigan, lazzatlanadigan, xush yoqadigan, yoqimli, yoqimtoy: Shirin xayollar.

4.Ahil, totuv. Shirin oila.

5. Shirin (xotin-qizlar ismi).

Achchiq so`zini kuzatamiz. Achchiq. 1.Ta'mi og`iz-tilni achitadigan, lovillatadigan. Achchiq garmdori.

2. Nordon, tishni qamashtiradigan. Achchiq anor.

3.Achchiq choy. Quyuq damlangan choy.

4.Sezgi a`zolariga qattiq ta`sir qiladigan, o`yuvchi. Achchiq tamaki.

5.Jazillatadigan, jonni achitadigan. Dalalarda kech kuzning achchiq shamoli esa boshladi.(S.Ahmad)

6. Ko`chma ma'noda: Kishiga qattiq tegadigan, ko`ngilga ozor beradigan; qattiq, noxush. Achchiq tanqid.

7.Tili achchiq iborasi ham achchiq so`zi asosida shakllangan.

8.Ko`chma ma'noda: G`am-iztirobli, alamli. Uning achchiq ko`z yoshlari.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki yuqorida ko`rib o`tgan shirin sifati "ahil, totuv, farovon" kabi konnotativ ma'nolarni ifoda etishi mumkin: Bu kimningdir shirin hayoti, hayron, mag`lub bu koinot. (O.Muxtor) Quyidagi misralarda shirin leksemasi oksimaron san'atini yuzaga keltirgan: Meni shirin og`u lazzati qiynar. (A.Oripov) She'riyatda shirin so`zi ko`proq mavhum ma'noli so`zlar belgisini ifodalaganda ijobiy emotsional ma'noni yuklaydi. Shukur aka bunday shirin ertaklarga e'tiroz bildirardi. (N.Nazir) Yuqoridagilardan ko`rinadiki, maza-ta'm sifatlarining ham konnotativ ma'nolari keng bo`lib, bular orasidan shirin va achchiq so`zlari ma'no ifodasining ko`pligi bilan ajralib turadi. Taxir, chuchuk, nordon kabilar shirin va achchiq sifatlari oralig`idagi leksemalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясаш усули масаласига доир. //Ўзбек тили ва адабиѐти. 1999, 4-сон. 35–39-бетлар.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. Т.: Ўзб. Мил. Энцик., 2006–2008.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. Т.: Ўзбекистон, 1992. 339 б.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o`zbek tili (darslik). T.: Universitet, 2006. 464 b.
5. http://library.navoiy uni.uz/files/hozirgi_ozbek_adabiy_tilida_sifatlarning_semantik-_funktsional__xususiyatlari_.pdf.